
SO'NGGI QO'NG'IROQ: "ILMNI QADRLANG, ILMGA INTILING"

25 may kuni yurtimizning barcha umumta'lim maktablarida bo'lgani kabi Toshloq tumanidagi ta'lim maskanlarida ham joriy o'quv yili yakunlanishi munosabati bilan "Ilmni qadrlang, ilmga intiling"shiori ostida tadbirlar bo'lib o'tdi.

Xususan, tumandagi 18-umumta'lim maktabida tashkil etilgan tadbirda maktab o'quvchilari va ularning ota-onalari ishtirok etdilar.

Tadbirda yil davomida namunali xulqi va a'lo baholarga o'qib, eng yuqori reyting ko'rsatkichlarga erishishgan iqtidorli bitiruvchilar va ta'limda fidoyilik qilgan maktabning faol o'qituvchilari faxriy yorliq va tashakkurnomalar bilan rag'batlantirildi.

2023-05-25 16:40:04